

"O'zkimyosanoat" AJ va "Sun'iy intellekt alyansi" o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda

// 05.02.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-sun-iy-intellekt-alyansi-o-rtasida-hamk>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati va "Sun'iy intellekt alyansi" nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etishga qaratilgan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Mazkur hamkorlik raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga keng tatbiq etish hamda davlat, biznes, ilmiy-ta'lim muassasalari va ekspertlar hamjamiyati o'rtasida samarali hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.



Hamkorlik doirasida "O'zkimyosanoat" AJ va "Sun'iy intellekt alyansi" sun'iy intellekt sohasida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan holda, turli ta'lim dasturlari, amaliy treninglar va master-klasslarni tashkil etish va ularda ishtirok etishni rejalashtirmoqda. Bu esa soha mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, zamonaviy raqamli yechimlar bilan ishlash salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga joriy etish bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatida ishtirok etish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, ilgari surish va qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.



Ushbu loyihalarni iqtisodiyotning real sektoriga tatbiq etish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ham hamkorlikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.



Tomonlar ushbu hamkorlik sun'iy intellekt sohasida ilg'or tajribalarni joriy etish, raqobatbardosh innovatsion yechimlarni shakllantirish hamda sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'lishiga ishonch bildirdilar.

